

BOTIR ZOKIROV IJODIDA SHARQ VA G'ARB MUSIQIY USLUBLARINING UYG'UNLIGI

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

Botir Zokirov nomidagi milliy Estrada san'ati institute

Estrada san'ati fakulteti 1-bosqich magistranti

E-mail: sadullayevamaftuna50@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek estrada san'atining asoschilaridan biri Botir Zokirov ijodida Sharq va G'arb musiqiy uslublarning uyg'unlashuvi masalasi tahlil qilinadi. Xonandaning repertuaridan tanlangan "Arabic tango" va "Maro bebus" qo'shiqlari misolida Sharq musiqasiga xos melodik bezaklar, milliy intonatsiyalar hamda G'arb estrada va tango janrlariga xos ritmik tuzilma va ijro tamoyillarining o'zaro sintezi yoritiladi. Tadqiqot davomida Botir Zokirovning vokal uslubi, sahna talqini va ijrochilik maktabi xalqaro musiqiy an'analar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Maqolada san'atkor ijodining o'zbek estrada san'ati rivojidagi o'rne va uning milliy hamda umumbashariy madaniyatni uyg'unlashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *Sharq, G'arb, Estrada, tango, qo'shiq, janr, festival, xonanda, bastakor.*

XX asr musiqa madaniyatining yorqin namoyondasi, o'zbek estradasi yaratuvchisi Botir Zokirovning ijodi bugungi kunda eng dolzarb hamda sermazmun kashfiyotlardan hisoblanadi. Iste'dodli xonanda, minglab qo'shiqlar muallifi bugungi kunda yosh avlodga o'zining bitmas-tugamas ijodiy namunalarini qoldirib, o'zbek estradasi gullab-yashnashi uchun juda kata sharoitlar yaratib berdi.

Ushbu buyuk xonanda to'g'risida ilmiy adabiyotlar yetishmasa ham yetarli tadqiqotlar, o'rganib borishlar uning ijodi keng targ'ib qilinishiga hissa qo'shgan. Xususan Gula Golub muallifligidagi "Поёт Батыр Закиров" to'plami xonandaning ijod namunalari, qo'shiqlarning chuqur tahlilini o'z ichiga olgan. Ushbu manba ko'pgina o'quv yurtlarida Estrada san'ati doirasida metodik qo'llanma hisoblanadi. Shu bilan birga ko'pgona yosh tadqiqotchilar tomonidan xonandaning ijodi, ijro uslublari, ijro maktabi keng o'rganilib kelmoqda.

Botir Zokirov qo'shiqlari orqali o'zbek milliy musiqasi va jahon musiqa san'atini, Sharq taronalari va G'arbning noyob kuylarini birlashtira olgan. Uning "Arabic tango", "Maro bebus" kabi jahon ohanglari uyg'unlashgan asarlari hamda "Ra'no", "Maftun bo'ldim" singari chin o'zbek ohanglarini ranglashtirish orqali paydo bo'lgan qo'shiqlarini solishtirish orqali uning keng ijodini tahlil qilish mumkin.

"Arab tangosi" O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirovning eng mashhur va tashrif qog'ozga aylangan qo'shiqlaridan biridir. Qo'shiq aslida misrlik mashhur

bastakor va xonanda Farid al-Areash qalamiga mansub bo'lib, "Ya zahraten fi xayali" ("Ey xayolimdagi gul") yoki "Mening nurli orzularim" deb nomlanadi. Botir Zokirov ushbu qo'shiqni ilk bor 1957-yilda Moskvada o'tkazilgan butunjahon yoshlar va talabalar festivalida ijro etgan va kata shuhrat qozongan.

Qo'shiq arab tilida, misr lahjasida ijro etilgan. Zokirovning o'ziga xos lirik-dramatik ovozi va sharqona koloriti taronani nafaqat sobiq ittifoqda, balki arab mamlakatlarida ham mashhur qilgan. Bu asar o'zbek Estrada san'atida yangi davrni boshlab bergan deb hisoblanadi. Hozirgacha turli loyihalarda yosh ijrochilar tomonidan qayta ijro etib kelinmoqda.

Qo'shiqning asosi – Tango. Bu Argentina va Yevropada shakllangan, o'ziga xos keskin ritm va dramatik tabiatga ega G'arb raqs janridir. Kuy tuzilishi va bezaklari (melizmatika) sof arab musiqasiga xosdir. Unda Sharqning lirik mayinligi va ohangdorligi ustunlik qiladi.

Botir Zokirov asarni arab tilida kuylab, Sharqning nafis talaffuzi va hissiyotini yetkazib bergan. Shu bilan birga, uning ijrosida G'arb Estrada maktabiga xos bo'lgan akademik vokallik va simfonik orkestr jo'rliqi mavjud bo'lib, bu asarga xalqaro miqyosdagi salobat bag'ishlagan.

Buyuk xonandaning har bir qo'shig'i tinglovchida o'zgacha taassurot qoldiradi. Shu bilan birga "Maro bebus" qo'shig'i ham uning chet el madaniyati bilan uyg'unlashgan noyob namunasidir.

"Maro bebus" ("Meni o'p") – Botir Zokirov repertuaridagi eng hissiyotlarga boy va lirik asarlaridan biri bo'lib, u nafaqat lirik mahorati, balki siyosiy-ijtimoiy tarixi bilan ham ahamiyatlidir.

Qo'shiq aslida "Mara beboos" deb nomlanadi. U 1950-yilda Eronda yozilgan bo'lib, musiqasi Majid Vafodorga, matni esa shoir Haydar Raqabiyga tegishli. Eron madaniyatida bu qo'shiq vidolashuv ramzi hisoblanadi. U o'lim jazosiga hukm qilinganm ofitserning o'z qizi bilan xayrlashuvi sifatida talqin qilinadi. Botir Zokirov uni o'zbek sahnasiga olib chiqib, unga yangi hayot va estetik mazmun bag'ishladi.

Asar klassik tango va fors lirikasi uyg'unligida yaratilgan. Undagi g'amgin ohang va vazmin ritm tinglovchini chuqur o'yga toldiradi. Zokirov bu qo'shiqni ijro etishda o'zining dramatik baritoni orqali «shiddatli sukunat» effektini yarata olgan. U baland pardalarda baqirmaydi, aksincha, dardni pichirlab, ichki titroq bilan yetkazadi.

Matndagi «Maro bebus» (Meni o'p, oxirgi marta o'p) jumlasini ayriqlik oldidagi so'nggi iltijoni ifodalaydi. Qo'shiqda bahor, gullar va tong otishi haqidagi misralar kelajakka umid, ammo ayni damdagi fojiaiy yakunni anglatadi. Botir Zokirov bu matnni shunday kuylaganki, tilni tushunmagan tinglovchi ham undagi ayriqlik dardi va muhabbatni his qiladi.

Botir Zokirov ushbu asar orqali O'zbekiston va Eron o'rtasidagi madaniy ko'prikn mustahkamlagan. Uning ijrosi sharofati bilan «Maro bebus» butun Sovet

Ittifoqi bo'ylab mashhur bo'ldi va hali ham o'zbek estrada san'atining eng yuqori cho'qqilaridan biri bo'lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbarining ushbu betakror san'atkorning 85 yilligini nishonlash to'g'risidagi qarori madaniy-ma'naviy hayotimizda muhim voqeadir. Atoqli ijodkorning ijodiy merosiga yangicha yondashuv, ayniqsa, yosh xonandalar mahoratini yuksaltirishda katta rol o'ynashi aniq.

Ha, Botir Zokirov milliy estrada san'atimizning asoschilaridan biri, u Prezidentimizning qaroriga qayd etilganidek, "zamonaviy o'zbek madaniyatini dunyo miqyosida keng targ'ib etish, ijodiy va ijtimoiy faoliyati bilan xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirishga beqiyos hissa qo'shgan buyuk san'atkor...". B.Zokirov ayni paytda Sharq xalqlari musiqiy san'atining bilimdoni, dunyo uzra keng targ'ibotchilaridan edi.

U rus, xorijiy va sharq estrada qo'shiqlarini o'zbek milliy kuylari bilan uyg'unlashtirib, o'ziga xos yangi musiqiy qiyofa yaratdi.

Botir Zokirovning o'ziga xos ovozi va ijro uslubi ham sharqona naqshlar, ham g'arbiy jazz uslubini mukammal o'zida mujassam etgan. Ushbu uyg'unlik milliy va umumbashariy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan holda, san'atkorga nafaqat O'zbekistonda, balki butun Sharq dunyosida mashhurlik keltirdi.

Botir Zokirov o'ziga xos ijrochilik maktabini yaratib ketdi. U qo'shiqlaridek nafaqat o'zbek san'ati muxislari qalbida, balki butun Sharq dunyosi musiqasi shaydolari yodida mangu yashaydi. San'atkor tavalludining 85-yilligini nishonlash doirasida o'tkaziladigan tadbirlar, uning nomi bilan ochiladigan oliy maktab, yodgorlik majmuasi va uy-muzey, boshqa ezgu ishlar san'atkorning ijodiy merosi yanada ommaviylashiga, ayniqsa, yoshlarni milliy va umumbashariy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гуна Голуб. "Поет Батыр Закиров". – Москва: «Музыка». 1973.
2. S. Z. Miskinova Botir Zokirov ijodi va o'zbek estradasi taraqqiyoti masalalari. – Academic Research in Educational Sciences. 2021.
3. <https://share.google/aimode/AFoH8P6J1es9jg6eh>
4. <https://share.google/aimode/6dmLRvRoEwap2Zdar>